



# **Surxondaryoda to'rt sektor rahbari yoshlari bilan uchrashdi**




Termiz shahridagi Imom Termiziylar xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida Surxondaryo viloyatidagi to'rtta sektor rahbarining yoshlari bilan uchrashuvni bo'lib o'tdi.

Unda Termiz shahri va tumanlarda yashaydigan yigit-qizlar, masalaga aloqador tashkilot va idoralar rahbarlari, ommaviy axborot vositalari xodimlari, blogerlar ishtirok etdi.

Tadbirda viloyat hokimi To'ra Bobolov vohadagi to'rtta sektor hududida yoshlarga oid amalga oshirilayotgan davlat siyosati doirasida olib borilayotgan ishlar haqida hisobot berdi.





Prezidentimizning 2020 yil 25 dekabrb yoki mamlakatimiz yoshlari bilan videoselektor tarzida o'tkazilgan "O'zbekiston yoshlari forumi"da yoshlarga oid davlat siyosati sohasida hududlarda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan aholi xususan, yoshlarga har oyda bir marta hisobot berib borish tizimini yaratish vazifasi belgilab berilgan edi. Shunga muvofiq tashkil etilgan uchrashuvda ta'kidlandiki, so'nggi yillarda mamlakatimizda har taraflama barkamol yosh avlodni tarbiyalash, ularning mustaqil hayotga qadam qo'yishi uchun yetarli sharoit yaratish, madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.







Viloyatda 354 ming 169 nafar yetti yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bola, 808 ming 201 nafar 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qiz istiqomat qilmoqda. Ularni davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusga jalb etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish uchun madaniyat markazlarida 665 dan ortiq, umumta'lim maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablarida yo'lga qo'yilgan 753 ta to'garak, studiya va ustaxonalarga 130 ming 900 yosh qamrab olindi. Joriy yilda Angor tumani madaniyat markazi, Sho'rchi tumani "Serg'ayrat" madaniyat markazi, Jarqo'rg'on tumanidagi S. Qobilov nomli madaniyat markazlarida qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlari yakunlanishi hamda viloyatdagi 21 ta bolalar musiqa va san'at maktablarini 825 dona o'quv darsliklari 470 ta milliy va yevropa cholg'u asboblari bilan ta'minlashi bu boradagi ishlar samaradorligi yanada oshadi.



Vohada yosh avlodni jismoniy chiniqtirish va sport sohasida o'z qobiliyatini namoyon etishi uchun zarur sharoitlar yaratishga ham ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Viloyatdagi sport ob'ektlarida faoliyat yuritayotgan 1 ming 315 ta to'garak ana shunday ezgu maqsadga xizmat qilib, ularda 185 ming 600 nafar yoshlар muntazam sport bilan shug'ullanmoqda. 721 ta mahallada barpo etilgan 717 ta futbol, basketbol, voleybol kabi sport maydonchalari 140 ming 885 nafar o'g'il-qizni qamrab olgan. O'tgan yili ushbu yo'nalishlarda viloyatda 3 ming 658 sport tadbiri tashkil etilib, ularda 365 mingdan ortiq yoshlар o'z mahoratini namoyish etdi.





Joriy yilda vohadagi 927 ta umumta'lim maktablari 21 turdagи 9 ming 125 ta sport inventarlari bilan ta'minlanadi. Olimpiya va ommaviy sport turlarini o'z ichiga olgan "Mahalla olimpiadasi" sport musobaqlari tashkil etiladi.

Viloyatda yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish maqsadida ishlab chiqilgan dasturga ko'ra, 2021-2025 yillarda 73 ta mini futbol, 273 ta "Workout" maydonlari, 42 ta fitnes va trenajyorlar, 149 ta badminton, 159 ta stritbol maydonlari hamda velosport, yurish, yugurish yo'laklari tashkil etiladi. Hozirgacha vohadagi 293 mahallada 284 ta "Workout" maydoni, 9 ta stritbol maydonchalari qurildi.




Hisobotda joriy yilga mo'ljallangan investitsiya dasturi doirasida bunyod etiladigan sport inshootlari haqida ham yetarli ma'lumot berildi.

- Bugungi uchrashuvimizda blogerlar ham qatnashmoqda,-dedi viloyat rahbari.- Shu o'rinda bir narsani aytishim kerakki, Termiz shahridagi tennis kort o'rnida Prezident maktabi barpo etayapmiz. Chunki, bu inshoot shaharning yangilangan qiyofasiga mos bo'lmay turgan edi. Zamonaviy tennis kort "Surxon" sport majmuasi tarafda yangidan quriladi. Bu yerda yoshlarning tennis mashg'ulotlarini juda chiroyli o'tkazishi, jismonan chiniqishi uchun barcha qulaylik yaratiladi.





Viloyat hokimi o'z hisobotida joylarda kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish borasida olib borilayotgan ishlar va ularning samaralarini atroflicha tahlil qilib berdi. Aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga e'tibor qarattdi. "Yoshlar daftari" ni shakllantirish, yoshlar bandligini ta'minlash va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga qaratilayotgan e'tiborga atroflicha to'xtaldi.





- Prezidentimiz shu yil 27 yanvarb kuni "Mamlakatimizda yoshlар bandligini ta'minlash va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari"ga bag'ishlab o'tkazgan videoselektor yig'ilishlarida yoshlар bandligini ta'minlash va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha tegishli topshiriqlarni bergan edi,- dedi T.Bobolov.- Biz, 4 ta sektor boshchiligidagi viloyatdagi yoshlарimizning aniq balansini shakllantirib chiqdik. Ma'lum bo'ldiki, aholining 60 foizini yoshlар tashkil etmoqda. Shunga ko'ra, ayni paytda 18-30 yosh toifasidagi yigit-qizlarning 111 ming 56 nafari rasmiy band bo'Igan, 362 ming 103 nafari norasmiy band bo'Iganl yoshlardir. 80 ming 78 nafarini ishlash istagi yo'qlar, 1 ming 252 nafari mehnatga layoqatsiz imkoniyati cheklanganlar, 56 ming 752 nafari ishsiz, kasb-hunarga o'qish, kredit olib tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'Igan va ijtimoiy, iqtisodiy hamda psixologik muammolari mavjud yoshlarni tashkil etdi. Biz, ana shu 56 ming 752 nafar yigit-qizni "Yoshlар daftari"ga kiritib, ularni daftardan chiqarish bo'yicha tizimli ishlar olib borayapmiz.

Hisobotda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar aniq yo'nalishlar bo'yicha chuqur tahlil qilib berildi. To'rt sektor rahbari ham kelajagimiz egalari o'rtaga tashlayotgan muhim masalalarni, ular duch kelayotgan muammolarni hal etishga tayyor ekani qayd etildi.



Uchrashuvda yoshlар viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan bog'liq turli taklif va g'oyalarni o'rtaga tashladi. Shuningdek, tadbirkorlik sohasida duch kelayotgan muammolari bilan o'rtoqlashdi. Aksariyat masalalar sektorlar va mutasaddi tashkilotlar rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqilib, joyida yechimi topildi. Hal etilishi vaqt talab etadigan murojaatlar bo'yicha muddat belgilanib, ijrosi qat'iy nazoratga olindi.

